

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 82-3/-2:82.09:821.512.133

ERKIN VOHIDOVNING HAJVIY ASARLARIDA DAVR MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ ПЕРИОДА В КОМИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЭРКИНА ВАХИДОВА

PERIOD PROBLEMS IN THE COMIC WORKS OF ERKIN VAHIDOV

Muhammadjonova Go'zalxon 

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada shoir Erkin Vohidovning hajvchilik mahorati tadqiq etilgan. Xususan, satirik va yumoristik sherlari davr muammolari talqini kontekstida tahlilga tortilgan, ularda muallif "men" i masalasi, ijodkorning badiiy-estetik tafakkuri o'rganilgan. "Donishqishloq latifalari" turkum she'rlarida komiklik va kinoyaviylik, lirik kechinma tabiati, shoirning hajviy obraz yaratish mahorati Matmusa obrazining tahlili vositasida ochib berilgan.

Аннотация

В статье рассматривается комическое мастерство поэта Эркина Вахидова. В частности, сатирические и юмористические стихотворения анализировались в контексте интерпретации проблем времени, в которых исследовался вопрос об авторском «Я» и художественно-эстетическом мышлении творца. В стихотворениях цикла «Мудрые деревенские анекдоты» через анализ образа Матмусы раскрываются комизм и сарказм, характер лирического переживания, умение поэта создать комический образ.

Abstract

The article delves into the comic artistry of poet Erkin Vahidov, focusing particularly on his satirical and humorous poems. These works are analyzed within the context of interpreting contemporary issues, examining the author's "I" and the creative's artistic and aesthetic mindset. In the "Wise Village Anecdotes" series, the essence of comedy and sarcasm, the nature of lyrical experience, and the poet's talent for crafting comic imagery are brought to light through an analysis of the character Matmusa.

Kalit so'zlar: hajviyot, satira, yumor, hajviy obraz, badiiy mahorat, Erkin Vohidov, badiiy-estetik tafakkur.

Ключевые слова: комедия, сатира, юмор, комический образ, художественное мастерство, Эркин Вахидов, художественно-эстетическое мышление.

Key words: comedy, satire, humor, comic image, artistic skill, Erkin Vahidov, artistic and aesthetic thinking.

KIRISH

Erkin Vohidovning hajviy asarlari o'zbek adabiyotida o'z ahamiyati va o'rniga egadir. "Oltin devor" komediyasi, "Donishqishloq latifalari" turkumi va "Sen menga tegma", "Qumursqalar jangi", "Siyosiy saboq" kabi qator she'riy asarlarida mavjud davrning muammolari, illatlari, insonlar xarakteridagi nuqsonlar, insoniy munosabatlardagi og'riqli masalalar ko'tariladi. Bu muammolarining barchasi shu xalqning bir vakili sifatida shoirning yuragida alam, iztirob, dard sifatida yig'ila borib, madda bog'lab, chidab bo'lmas og'riq bilan she'rga ko'chadi. Shoir bu izhorni goh kinoyali, goh qochirim bilan, goh keskin fosh qilish ruhiyatida tanqidiy, goh yumoristik ifodalaydi. 2015-2016 yillari nashr etilgan tanlangan "Asarlar" III jildida "Hajv daftari" [1. 130-209.] nomi bilan jamlangan turkum she'rlar o'rin olgan. Ular mazmun mohiyatan ijtimoiy va siyosiy hayotdagi muammolarning fosh etilishi bilan ahamiyatlidir. Yumoristik va satirik ruhda yozilgan ushbu she'rlar shoirning davr muammolariga qarshi "qalamini nayza qilib" tuta olgani, yurakdagi alamini "oq qog'ozga" dardli "to'ka olgan"ining dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotshunosligida hajviyot A.Abdug'afurov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, R.Muqimov, M.Nazarov, S.Toshkanov, G. Jo'rayeva, O.Saidov, SH.Ahmedova [2] va boshqalar tomonidan turli rakurslarda o'rganilgan bo'lsa-da, Erkin Vohidov ijodidagi hajviy asarlar monografik tarzda hanuzgacha tadqiq etilmagan. Shoir hajviy asarlarining ko'pi sobiq sovet davrida

ADABIYOTSHUNOSLIK

yaratilganini inobatga oladigan bo'lsak, muallifning mahorat va jasorat bobida e'tirofli ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. Erkin Vohidov hajviyotida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar teran yoritilgan bo'lib, ularning struktural, biografik, psixologik tahlili shoirning badiiy mahoratiga xos yangi ma'lumotlar berishi, shubhasiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Erkin Vohidov ko'targan hayotiy muammolarning ba'zilari barcha jamiyat va barcha davr uchun begona emasdek. Boshqaruv-rejalashtirish tizimidagi bu kabi og'riqli masalalar shoirning o'ziga xos uslubi bilan fosh etiladi. Jumladan, shahar va tumanning ko'p yillik rejasidan tushib qolgan arosat aholining "Bilolmaymiz, qay mamlakat, Qay o'lkaning mulkidirmiz. Qishloq borsak – masxaramiz, shahar kelsak – kulkidirmiz" ("Shaharmi bu, qishloqmi bu?" she'ri, 1976 y.) nutqida shoirning kinoyasi, zaharxandasi aks etadi.

*Qayerdamiz – bilolmasdan
Har og'izga boqar bo'ldik.
Birov aytar qishloqdamiz,
Birov aytar – shahar bo'ldik.
Yana birov bu gap xato,
Haqiqatda bundoq deydi:
Juft son uylar shahar bo'lur,
Toq son uylar qishloq deydi.
Men juftmidim yo toqmidim,
Shaharmidim, qishloqmidim.*

She'rda xalq ruhiyati, kayfiyati kinoya usulida yorqin ifodalangan. Voqeband she'r o'nlik muashshar shaklida yozilgan. Ritorik murojaat, ritorik so'roq, xitob, xalq qo'shiqlari ohangi, takror, qiyos, tazod asosida yaratilgan tasvirlar xalq dardini o'z tilida haqqoniy yoritib berishga xizmat qilgan.

Shoirning "Qumursqalar jangi"(1977 y.) she'ri I.Krilovning "Oqqush, Cho'rtanbaliq va Qisqichbaqa" asarini yodga soladi. Bayon uslubi "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit", mazmunida bo'lib, qumursqalar misolida jamiyat, haloyiq, uning davr voqeliklariga munosabati masalasi ko'tarilgan. Ening birdamligiga putur yetishi kelajakda unga xavf va hujumlarning muqarrarligidir. Mavjud tuzum mafkurasi sabab shoir o'z erksevar tuyg'ularini majoziy ifodalaydi. O'tmish va mavjud davr qiyosida tegishli xulosa chiqarishga ishora qiladi.

Erkin Vohidov ijodida satira tig'i laganbardor, zamonasoz shoirlar tomon ham qaratiladi. Ijod ahlida uchrashi mumkin bo'lgan bu holat bilan shoir aslo chiqisha olmaydi. Bu munosabat uning she'riy satrlaridagi kinoyada ham yaqqol sezilib turadi.

*Pillakor raisning da'vati ila,
Shoir mehmon bo'lgach, qishloqqa kelib.
Madh yozdi yuksak she'r san'ati ila
Pillani tillaga qofiya qilib.
Yil ham o'tgani yo'q, mehmondo'st rais
Chorvador kolxozga o'tganin bilib
U qasida yozdi qalbi to'la his
Tuyani biyaga qofiya qilib.
Rais ishdan ketdi, u endi sobiq,
Shoir xabar olmas nazarga ilib.
Endi u she'r yozar uslubga sodiq
Raisni dayusga qofiya qilib.*

Hajviy asarlar shoirning jamiyatdagi illatlarni fosh qilish, ularga qarshi kurashish yo'lidagi asosiy qurolidir. Yuqoridagi birgina holat asosida shoir butun jamiyatdagi katta muammoni o'rta tashlaydi. Shoir va rais munosabatlarida asli inson hamda mavjud tuzum munosabatlari ifodalangan. Zamonasozlik va laganbardorlikka nafrat har bir jumlada kinoyaviy talqinlar qatida sezilib, kuchayib boradi. "Shoir"ning "iste'dodi" va saviyasiga uning "yuksak she'r san'ati ila" qalam tebratishi bilan baho beriladi. Laganbardor shoirning hissiyotlari ham asli soxta: "U qasida yozdi qalbi to'la his". Lekin bu hislar haroratida, samimiyatdan ko'ra manfaatdorlik sifatleri ustunroq.

"Endi u she'r yozar uslubga sodiq", bu xil laganbardor shoirlarning an'anaga aylanib ketgan usullari bir xil – manfaat tugagan yerdan qoralash boshlanadi. Uslubga sodiqlik shunda!

Lirik qahramon xarakterining tadrijiy rivoji har bir bandning oxirgi misrasida namoyon bo'ladi. Avval "pillani tillaga qofiya qilib" she'r yozganida muayyan mantiq bor edi. Keyin esa "tuyani biyaga qofiya qilib" qasida bitilishi bu endi bema'nilikdan boshqa narsa emas. "Raisning dayusga qofiya qilib" she'r bitilishida soxta shoirming asliyatini namoyon bo'ladi. Bu tasvirlar lirik qahramonning niqobi yechilib, qanday inson ekanligini namoyon etadi.

"Yubiley" hajviy she'rida xudbinlik bilan umrini zoye o'tkazgan inson obrazi aks etadi. Eng achinarlisi, yubilyarning o'zi buning mohiyatini anglamaganida. Boshqalarning fojeasi esa buni bilib bilmaslikka olish, unga iltifot ko'rsatish majburiyatida. Na elga, na o'ziga foydasiz, qalb ko'zi basir insonlarning tipik timsoli yaratiladi:

*Martaba, shon shuhrat
Mol davlat uchun,
Jon fido etmoqni
Bildingiz qonun.
Xirs ila nafs bo'ldi
Sizga rahnamun.
Muborak bu yoshga
Yetdingiz bu kun,
Qancha pok insonlar
Boshiga yetib.*

Shoir zamonasining manfaat ketidan qolmaydigan soxta qahramonlariga qarata pichingni xalq ta'biri ("boshiga yetib") bilan izhor qilishni ma'qul topadi. Jamiyatning maddoh, har narsani moddiy manfaat bilan o'lchovchi mansabparast kimsalarini kinoya usulida tavsiflaydi :

*Hali ko'p yubiley
Ko'rarsiz, durust.
Yuzingizdan ketmas
Hali qizil tus.
Sizdan ko'p "karomat"
Ko'radi ulus.
Lekin "yaxshi edi "
Deydi el, afsus
Borsangiz qabrning
Toshiga yetib.*

"Qizil tus", "karomat", "yaxshi edi" tavsiflarida jamiyat rivojini, el farovonligi va baxtini to'sadigan amal hamda nafs bandalari kinoya usulida fosh etiladi.

Hech kimga yetmadi

*Sizdan manfaat,
Bir shogird o'stirmay,
Eshitmay rahmat.
Keldingiz yubiley
Yoshiga yetib.*

Endi shoir kinoya va kulgilardan holi bo'lib, o'z niyati va maqsadini to'g'ridan-to'g'ri aytishga jur'at topadi. "Hech kimga yetmadi sizdan manfaat", "Bir shogird o'stirmay eshitmay rahmat" misralarida yubilyarga nisbatan achinish emas, nafratni sezish mumkin. Shoir shon shuhrat, mol davlat uchun yashovchi rahbarlar niqobini ochib tashlashdek og'ir ishni hech bir ikkilanmay, cho'chimay o'z zimmasiga oladi. So'nggi satr, so'nggi so'z esa duoibaddek yangraydi:

*Sizdek yashamasin ,
Olamda hech zot!*

"Erkin Vohidovning ijodida, ayniqsa, 70-80-yillar she'riyatida voqeabandlikka, rivoyat va hikoyat usuliga moyillik kuchli. Hajviy she'rlarining ko'pchiligi, jumladan, "Donishqishloq latifalari" boshdan-oyoq shu yo'sinda bitilgan"[3. 18.]. Kulgi, hazil-mutoyiba orqali alam-nadomatlarni ifodalash "Donishqishloq latifalari"da yanada kuchliroq.

ADABIYOTSHUNOSLIK

“Donishqishloq latifalari”ni o‘qib hamma kuladi. Vaholanki, men ularni alam bilan yozganman, – deydi shoir. – Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku. Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutgancha qolavergan, bir ohangni qo‘ymay chalabergan matmusalar ozmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar...”[3. 18].

Erkin Vohidov hajviyoti haqida so‘z borganda shoir yaratgan Matmusa obrazi alohida tilga olinadi, tahliliy munosabat bildiriladi. Hazil mutoyibaga boy “Donishqishloq latifalari” da markazda turuvchi asosiy qahramon – Matmusa badiiy obrazi orqali kitobxon ajoyib qishloqqa tushib qolganday bo‘ladi.

“Donishqishloq latifalari”dagi Matmusa obrazi – sodda, sho‘x, qiziquvchan, mehmondo‘st. U antiqaligi sabab “tandir kiygan Matmusa” ataladi, dutorda kuy chalib, mashshoqlar “xatosi”ni anglatadi, “laganini chegalatib”, qishloq ahlini “qoyil qoldi”radi, mehmondo‘stligi bilan shaharlik mehmondan “yordami”ni ayamaydi, nafis san‘atga “mehri beqiyos”ligi sabab yaratgan surati “izm”ning piri bo‘lgan olimlar”ni lol qoldiradi, qo‘li gul bog‘bonligi uchun Donishqishloq ahli unga tahsin o‘qiydi, hattoki Matmusaning tiriklik chog‘ida unga haykal o‘rnatishadi. Bu qahramonga har bir o‘quvchi o‘rganib qoladi, qalbiga unga nisbatan iliqlik uyg‘onadi. “Matmusanning charxpalagi” teskari aylanganda ham kitobxon undan voz kechmaydi, yoki uni yomon ko‘rib qolmaydi.

“Donishqishloq latifalari” turkumiga kirgan she‘rlarning har biri Matmusaning turli hayotiy holatlardagi “niqob” laridir. Bu voqealar – Matmusaning o‘zini namoyon etish, nimalarga qodirligini ko‘rsatib qo‘yish, mavjudligini tasdiqlash yo‘lidagi xatti-harakatlari. Lekin mazkur xatti-harakatlarda ko‘p nomuvofiqliklar (maqsad bilan imkon, maqsad bilan vosita, da‘vo bilan reallik va h.) kuzatiladiki, qahramon shuni anglasa, niqobdan xalos bo‘lishi va o‘zligiga qaytishi mumkin. Mazkur tasvirlar kitobxon uchun ajoyib kulgi, ko‘tarinki kayfiyat manbayi, shuning barobarida tafakkurga chorlov va ruhiy poklanish asosidir.

“Tandir kiygan Matmusa” sarlavhasi ostida berilgan hajviy she‘rda ijtimoiy voqelik chuqur mantiq, falsafiy mushohadalar bilan aks ettirilgani diqqatga sazovordir. Chunki adabiyotning chinakam vazifasini o‘zida aks ettirgan, yuksak nafosat, poetik mushohadadagi teranlik, so‘z ishlatishdagi san‘atkorlik asarning qimmatini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shadi. Tandir sotib olish uchun bozorga chiqqan Matmusaning hangomalari, tandirni uyga qanday olib borish muammosi ham kuldiradi, ham mushohadaga chorlaydi:

Kengashildi, o‘ylandi, // Mindirildi oxiri

Eshagiga – Matmusa, // Matmusaga tandiri.

satrlarida nafaqat Matmusa, balki u mansub bo‘lgan jamiyat a‘zolarining ham fikrlash tarzi aks etgan. Ramziy-falsafiy talqinlarda butun jamiyatning rivojiga to‘siq bo‘lgan johillik, uning oqibatlarini yaqqol namoyon bo‘ladi. Mavjud voyelikdan achchiq xulosa shoir tilidan murojaat orqali yangraydi:

Ayo do‘stlar, adashgan // Bir mo‘mindan kulmaylik.

Matmusadek o‘zimiz // Tandir kiygan bo‘lmaylik!

Shoimning boy va rang-barang asarlariga nazar tashlasak, yarim asrlik ijodi davomida shoir jamiyatga, va hatto aytish mumkinki, tuzumga mutassil ravishda jiddiy tanqidiy munosabatda bo‘lib kelganini kuzatamiz. O‘z vaqtida aytilishi mumkin bo‘lmagan jamiyatdagi adolatsizliklar, “teskari ishlar”, zo‘ravonlik va mutelik singari muammolarni shoir hajv vositasida dadil ko‘tarib chiqa olgan. U o‘z qahramoni Matmusa eplay olmagan ishni kitobxon uddalashiga ishonadi.

Turkumdagi har bir she‘rda Matmusa obrazining alohida bir qirrasini ko‘rsatib o‘tiladi. Bir qarashda sodda, bir tomondan esa aqlli maslahatchi bo‘lib ko‘rinadigan bu qahramon tabiatan beg‘ubor inson. Kitobxon Matmusaning xatti-harakati, so‘zi va qilmishidan, “donoligidan” kula-kula tasvirlangan voqelikka teran nigoh bilan qaraydi. O‘z xarakteri va jamiyatdagi nuqsonlarni sog‘lom nigoh bilan kuzatadi va baholaydi. Buning zaminida ham ma‘naviy kamolot, poklanish mujassam.

XULOSA

Erkin Vohidovning ijtimoiy-siyosiy ruhdagi voqeaband she‘rlari mavjud tuzum mafkurasidagi illatlar, muammolarni keskin fosh qilishga qaratilgan satirik ruhdagi asarlardir. Ularda ijodkor sifatida shoir “men”i, uning ruhiy-ma‘naviy olami va xulosalari isyonkorona aks etadi. Mazkur asarlardagi ramziylik teran hayot falsafasini ifodalashga xizmat qilgan. Ijtimoiy-maishiy muammolar talqinida esa shoir yumoristik pafosni ma‘qul ko‘rgan.

17 ta mustaqil she'rdan tashkil topgan "Donish qishloq latifalari" ayricha tugal kompositsiyaga ega asardir. Unda Matmusaning kechmishlarini bayon etish orqali jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy muammolar ko'rsatiladi. O'zbek hajviyoti an'analari va muallifning novatorona yondashuvi asosida yaratilgan Matmusa obrazi Erkin Vohidovning o'ziga xos kashfiyoti va u ozbek hajviyoti, hajviy obrazlari sirasiga qo'shilgan munosib hissadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воҳидов Э. Асарлар. 3-жилд. Куз саҳовати. Т., "Шарқ" нашр.матбаа. 2016.
2. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. – Тошкент: Фан, 1966; Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973; Шарафиддинов О. Ҳажвиётга садоқат. – Тошкент. 1998; Муқимов Р. Бадиий адабиётда сатира ва сатирик образ масалалари. – Самарқанд: 1975; Назаров М. Юмор нима? ЎзАС, 1986. № 8; Муҳаммадиев Р. Аския. – Тошкент. 1970; Тошканов С. Ўзбек совет адабиётида сатирик характер проблемаси. – Тошкент. 1987; Саидов О. Сатира тили билан. – Тошкент. 1978; Ш.Ахмедова. Юмор жилолари. – Тошкент: Фан, 1998. Райҳонова М. Абдулла Орипов шеърлятида оламни идрок этиш ва бадиий воқелантириш тадрижи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Қарши, 2021. – 144 б. Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвия (XX-XXI аср материаллари асосида) Филол.фан. доктори дисс. – Тошкент, 2022. Шодмонов Н. Шоир "ҳазил"лари // Абадий садо. Қарши "Насаф" нашриёти, 2011. 64-71 б.
3. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърлят. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр. 2006.
4. Veli Savas Yelok, Muhammadjonova G. She'riyat shukuhi. Farg'ona. 2020.